Analysis of factors affecting certification in the production of textile industry products.....	1103
<b>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</b>	
Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish.....	1106
<b>Xidirov Shohrux Bobir o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	1111
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Professionalarning xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishning asosiy tamoyillari.....	1117
<b>Kadirova Zulayxo Abduxalimovna</b>	
Mintaqalarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning moliyaviy asoslari: xorij tajribasi.....	1121
<b>Xoltoyev Mirusmon</b>	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	1126
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	1131
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b>	
Soliqqa tortish va soliq ma'murchiligi sohasida ma'lumotlarning elektron hujjatdan foydalanish orqali soliq bazasini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	1136
<b>Axmedjanov Farrux Karimovich</b>	



# SOLIQQA TORTISH VA SOLIQ MA'MURCHILIGI SOHASIDA MA'LUMOTLARNING ELEKTRON HUJJATDAN FOYDALANISH ORQALI SOLIQ BAZASINI KENGAYTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

ORCID:0009-0004-5932-6360

**Axmedjanov Farrux Karimovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda soliq ma'murchiligi doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, natijalarni yig'ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish bo'yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2023-yil 18-avgust kuni o'tkazilgan Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, mamlakatimizda xorij tajribasini qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** barqarorlik reytingi, tadbirkorlik subyektlari, byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

**Abstract:** Today, within the framework of the tax administration, optimization of the structure of taxes, their collection, improvement of the mechanism of tax accounting and reporting, correct calculation of taxes, timely and full payment, the right of taxpayers established in the tax legislation and monitoring compliance with obligations, distribution of tax revenues between budgets of different levels, collection and analysis of results, implementation of extensive measures to harmonize tax relations of all participants in the taxation process are being conducted. Also, to ensure the implementation of the priority tasks set within the framework of the open dialogue of the President with entrepreneurs held on August 18, 2023, as well as more favorable conditions for business entities that pay taxes on time and operate in accordance with legal requirements. In order to create conditions and encourage them, by introducing digital technologies to the tax administration, expanding the tax base and some important reforms implemented in the tax system are studied. Foreign experience, scientific-practical conclusions, and suggestions on its application in our country are developed.

**Key words:** stability rating, business entities, fiscal policy, crisis, budget, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxation, tax rate, preferences.

**Аннотация:** Сегодня в рамках налогового администрирования, оптимизации структуры налогов, их сбора, совершенствования механизма налогового учета и отчетности, правильного исчисления налогов, своевременной и полной уплаты, реализуются права налогоплательщиков, установленные налоговым законодательством и осуществляется контроль за соблюдением обязательств, распределение налоговых поступлений между бюджетами разных уровней, сбор и анализ результатов, реализация обширных мер по гармонизации налоговых отношений всех участников налогового процесса. Также обеспечить реализацию приоритетных задач, поставленных в рамках открытого диалога Президента с предпринимателями, состоявшегося 18 августа 2023 года, а также создание более благоприятных условий для субъектов хозяйствования, своевременно уплачивающих налоги и осуществляющих деятельность в соответствии с законодательством. требований в целях создания условий и их стимулирования путем внедрения цифровых технологий в налоговое администрирование, расширения налоговой базы и некоторых важных реформ, реализуемых в налоговой системе, изучаются зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

**Ключевые слова:** рейтинг стабильности, хозяйствующие субъекты, бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налогообложение, налоговая ставка, преференции.



## KIRISH

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining amaliyotidan ko'rinib turibdiki, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish asosida qonunchilikka rioya etish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, ko'proq daromadlarni samaraliroq yig'ish, shaffoflik va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, inson omili aralashuvini kamaytirish hamda katta ma'lumotlar oqimini moslashtirishni ta'minlaydi. Soliq tizimida raqamlashtirishni rivojlantirish orqali soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi adolatli raqobat muhitini ham samarali rivojlantirish mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yu.M. Kukarina o'z tadqiqotlarida, birinchi navbatda, tadqiqotning yangi predmeti – menejment sohasiga faol joriy etilayotgan va qonunchilikni birlashtirishni talab qiluvchi elektron hujjat ekanligini ta'kidlagan. Bu sohada birinchi qonunlar faqat XX asrning 90-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan. Shuning uchun ilmiy ishlarda elektron hujjat hodisasini tushunish asta-sekin undan foydalanish tajribasini to'plashdan boshlanishini qayd etgan. Ularda mavjud ta'riflarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, "elektron hujjat" va "elektron imzo" yangi tushunchalarini shakllantirish jarayoni hujjat aylanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan [1].

V.D. Chervatyuk elektron hujjat aylanishining zamonaviy jarayonlardagi talablarni tahlil qilgan va quyidagilarni amalga oshirgan:

zamonaviy elektron arxivlar va elektron hujjat aylanish tizimlarini, mavjud mahsulot ma'lumotlarini boshqarish tizimlari imkoniyatlarini, elektron hujjatlardan foydalanish huquqlarini differensiallashtirish tamoyillarini qiyosiy tahlil qilgan;

1. nodavlat notijorat tashkilotlarining texnik hujjatlari elektron arxivi va elektron hujjat aylanishi uchun ma'lumotlar ombori modelini ishlab chiqqan;
2. axborotni himoya qilishning zarur darajasiga ega bo'lgan NNTlar o'rtasida elektron texnik hujjatlar almashinuvi modeli va algoritmlarini ishlab chiqqan;
3. nodavlat notijorat tashkilotlari texnik hujjatlari uchun elektron arxivdan ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqqan, bu esa texnik hujjatlarning yangi nusxalarining asl nusxalarini yaratish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bergan;
4. texnik hujjatlar elektron arxivi va nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron hujjat aylanishida ma'lumotlar ombori axborot tizimi (AT) uchun tizimli-funksional yechimni ishlab chiqqan;
5. laboratoriyada AT algoritmlarining ishlashi va samaradorligini tekshirgan va elektron hujjat aylanish tizimida arxivlash zarur jarayon ekanligini ta'kidlab o'tgan [2].

F.S. Kortikov ta'kidlashicha, axborot resurslarini integratsiyalash usullarini ishlab chiqish axborot tizimlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. So'nggi yillarda ma'lumotlar manbalarining yuqori darajada turli xilligi tufayli bu masala katta e'tiborni jalb qila boshladi. Har xil turdagi elektron hujjatlarning mavjudligi elektron hujjat aylanish tizimini juda dolzarb axborot tizimiga aylantirdi. Olim mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan va elektron hujjat aylanish tizimlarining tasnifini tuzgan. Elektron hujjat aylanishi tizimining ishlashi uchun asosiy tamoyillar va talablarni aniqlagan. Ilmiy ish doirasida sohasining strukturaviy modelini yaratgan. Strukturaviy modelning birgalikda ishlashini miqdoriy baholashni ta'minlaydigan raqamli usullar va tegishli algoritmlarni ishlab chiqqan [3].

A.A. Jarkov ta'kidlashicha, elektron hujjat aylanish tizimi axborot texnologiyalari asosida tashkilotning ichki va tashqi hujjatlar aylanishini tartibga soladi va tartibli boshqaradi [4].

A.P. Stolbovning fikricha, elektron hujjat aylanishi – bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar, standartlar asosida elektron hujjatlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, qabul qilish va yuborish, shuningdek, ularni aloqa tarmoqlari orqali ishonchli va xavfsiz yuborilishini ta'minlashdan iborat [5].

Iqtisodchi olim A.N. Bisultanov o'zining ilmiy ishida soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqqan. Olim quyidagi ishlarni amalga oshirgan: birinchidan, soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun soliq mu'murchiligi kategoriyalarini kompleks tahlil qilgan va yangi kategoriyalar joriy qilgan; ikkinchidan, soliq organlari va soliq to'lovchilarning munosabatlarini tizimlashtirish orqali soliq ma'murchiligining instrumentlari va usullarini o'rgangan; uchinchidan Rossiya hududlaridagi zamonaviy soliq ma'murchiligining holatini o'rgangan va sifat darajasini baholagan; to'rtinchidan, soliq ma'murchiligini rivojlantirishning raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anaviy va innovatsion usullardan foydalangan holda yo'nalishlarini aniqlagan hamda tavsiyalar ishlab chiqqan; beshinchidan, raqamli soliq tizimi hisobi va soliq ma'murchiligining yagona modelini ishlab chiqqan hamda foydalanish jarayonidagi samaradorligini aniqlagan [6].

K.O. Shreyter elektron hujjat aylanishi sohasini kengroq o'rgangan. Korxonalarda qog'oz hujjat aylanishi jarayonlarini tahlil qilib, bu jarayonlardagi bir qator kamchiliklarni keltirib o'tgan. Jumladan, qog'oz hujjatlarning



saqlash jarayonlari va ular uchun katta miqdorda joy hamda tegishli sharoitlar yaratilishi kerakligini katta xarajat sifatida e'tirof etgan. Ikkinchi navbatda qog'oz hujjatlarni qayta ishlash yoki tahlillar o'tkazish jarayonining qiyinligi va ko'p vaqt sarflanishi bilan uning samarasizligini aniqlagan. Natijada elektron hujjat aylanish tizimining joriy qilinishini tabiiy zarurat sifatida ta'riflagan. Elektron hujjat aylanishiga quyidagicha ta'rif bergan: "Korxonalar elektron hujjatlari bilan ishlaydigan yagona mexanizm va qog'ozsiz ishlash jarayonini joriy qilishdir" [6].


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalangan holda soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirishga doir ma'lumotlar berildi va ular tahlil qilinib ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori<sup>1</sup>ga muvofiq elektron hujjat aylanish tizimi ishtirokchilari quyidagi rasmda keltirilgan sxema asosida faoliyatlarini boshlaganlar. Bu tizim ishlash jarayonida Rouming operatori va elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari munosabatlari tartibga solingan. Dastlabki tizimda Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasi talablariga muvofiq ma'lumotlarni 10 yil davomida serverlarda xavfsiz saqlanishini kafolatlaydi.

Rouming tizimi qaror talablariga muvofiq elektron hisobvaraқ-fakturalarni tizim operatorlari tomonidan 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarda saqlaydilar. Bu elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari uchun qo'shimcha xarajat bo'lgan.



1-rasm. Rouming tizimi joriy qilinganda amalda bo'lgan mexanizmi<sup>2</sup>.

Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son Qaroriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-dekabrda 717-sonli Qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Kiritilgan o'zgartirishda elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari tomonidan ma'lumotlarni majburiy tartibda 5 yil davomida saqlash majburiyati bekor qilindi.


Natijada elektron hujjat aylanish tizimi operatorlarining server qurilmalarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari tejab qolindi. O'zgarishlar asosida yangi sxema ishlab chiqildi va bu sxema rasmda keltirilgan. Yangi

1 [www.lex.uz](http://www.lex.uz). Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 июндаги "Ўзаро ҳисоб-китоблар тизимида электрон шаклдаги ҳисобварақ-фактуралардан фойдаланишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 522-сон Қарори

2 Муаллиф томонидан тайёрланган.




sxemaga muvofiq tizim yangidan ishlab chiqildi va eskisi bilan almashtirildi. Natijada ma'lumotlar aymashinuvi tezligi ortdi. Yangi rouming tizimiga muvofiq elektron hujjatlar elektron hujjat aylanishi tizimi operatorlarining serverlarida majburiy saqlanishi bekor qilindi va ma'lumotlarni faqat Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasida saqlash majburiyati qoldi.



2-rasm. Rouming tizimining amaldagi ishlash mexanizmi<sup>3</sup>.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarning soliq solish bazalari ular tomonidan amalga oshirilgan jami realizatsiyalar hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i salmog'i mamlakat byudjetida katta salmoqqa ega, shu sababli bu soliqning ma'muriyatchiligi soliq tizimi organlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan rasmda qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining elektron shaklda, ammo eski tartibda topshirish mexanizmi keltirilgan. Eski mexanizmmda soliq to'lovchilar o'zlarida mavjud birlamchi hujjatlar asosida hisobotning kirim va chiqim reestrini qo'lda shakllantiradilar.



3-rasm. Soliq hisobotlarini eski tartibda topshirish mexanizmi<sup>4</sup>.


Kirim va chiqim reestri qo'lda to'ldirish uchun elektron hisobot to'ldirish portalidan shablon yuklab olinib, hisobvaraqa-fakturalar, bojxona yuk deklaratsiyalari, onlayn nazorat kassa mashinalari cheklari va boshqa bir-

3 Muallif tomonidan tayёрlangan.  
4 Muallif tomonidan tayёрlangan



lamchi hujjatlar ma'lumotlari qo'lda kiritiladi. Tayyorlangan fayl tegishli oy uchun elektron hisobotga birlashtirilgan holda topshirilgan va soliq organlari hisobotlarni tekshirib qabul qilganlar.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hisobotida xaridlar va sotuvlarni hisobot oyiga tegishli barcha summasi aks ettiriladi. Aylanma summalar elektron hisobvara-q-fakturalar, bojxona yuk deklaratsiyalari va onlayn nazorat kassa mashinalari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Bu ma'lumotlarning barchasi avtomat ravishda hisobotda aks ettiriladi. Avtomatlashtirishning ichki shakllanish sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



4-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotini avtomatlashtirish mexanizmi.<sup>5</sup>

Qo'shilgan qiymat solig'i davlat byudjetiga tushadigan soliqlarning orasida eng katta salmoqqa ega soliqdir. Bu soliqning avtomatlashtirish jarayoni korxonadan amalga oshirilgan barcha kirim va chiqim operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi kirimdagi qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda realizatsiya bilan ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti yillar davomida takomillashtirilib va avtomatlashtirib kelinmoqda. Soliq hisobotining yillar davomida avtomatlashtirilish dinamikasini 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi.<sup>6</sup>

Yillar/o'zgarishlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>QQS hisobotining jami kataklari soni</b>	257	259	211	216	201	213
<b>avtomatlashtirilgan kataklar soni</b>	103	89	90	95	161	177
<b>avtomatlashmagan kataklar soni</b>	154	170	121	121	40	36
<b>Foiz dinamikasi</b>	40,08	34,36	42,65	43,98	80,10	83,09
<b>hisobotning ilovalar soni</b>	9 ta	5 ta	7 ta	8 ta	6 ta	6 ta
<b>hisobotning paket kodi</b>	10005_9	10006_8	10006_14	10006_19	10006_34	10006_36

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining elektron shaklining yillar davomida takomillashib avtomatlashgani yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinib turibdi. Dastlab, ushbu soliq hisobotida kirim va chiqim hujjat-

5 Muallif tomonidan tayyorlangan.

6 Qo'shilgan qiymat solig'i elektron hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlangan




larini qo'lda kiritish zarur bo'lgan, bu esa ko'p vaqtni talab qilib, buxgalteriya xodimlarining sinchkovlik bilan ishlashini taqozo etgan. Hujjatlar soniga qarab, hisobotni to'ldirish jarayoni bir necha soatdan ikki-uch kungacha davom etishi mumkin edi. Biroq, avtomatlashtirish natijasida bu jarayon ikki-uch minutgacha qisqardi, bu esa soliq to'lovchilarning vaqtini sezilarli darajada tejashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, soliq tizimi avtomatlashtirilgan holda barcha soliqlarni o'zi hisoblay boshladi, bu soliq to'lovchilarni xatolardan himoya qilib, avtomatlashtirishning asosiy maqsadiga erishishga yordam berdi. Soliq to'lovchilar soliq rejimiga ko'ra "aylanmadan soliq to'lovchilar"ga ajratiladi, ular barcha tushumlaridan soliqlarni to'lab, oylik hisobotni taqdim etadilar. Hisobot har oyning 15-sanasiga qadar topshirilishi lozim.

## 2-jadval. Aylanmadan olinadigan soliq hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi.<sup>7</sup>

Yillar/o'zgarishlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
AOS hisobotining jami kataklari soni	418	258	180	145	161	161
avtomatlashtirilgan kataklar soni	194	123	75	67	110	110
avtomatlashmagan kataklar soni	224	135	105	78	51	51
Foiz dinamikasi	46.41	47.67	41.66	46.20	68.33	68.33
hisobotning ilovalar soni	10 ta	7 ta	6 ta	4 ta	5 ta	5 ta
hisobotning paket kodi	10104_8	10104_19	10104_23	10104_24	10104_28	10104_30

Yuqorida keltirilgan jadvalda aylanmadan olinadigan soliq hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi aks ettirilgan. Bu ma'lumotlarda yillar davomida soliq to'lovchilar tomonidan to'ldirilishi belgilangan kataklarning kamayishini va avtomat to'ldiriladigan kataklarning ko'payishini ko'rish mumkin.



## 5-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq hisobotini avtomatlashtirish mexanizmi<sup>8</sup>.

Aylanmadan olinadigan soliq hisobotining soliqqa tortiladigan bazasi elektron hisobvaraqq-faktura, bojxona yuk deklaratsiyalari va onlayn nazorat kassa mashinalarining chek ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bu hisobot ham avtomatlashtirishdan avval ma'lumotlarni qo'lda faylga kiritib, keyin hisobotga ilova sifatida yuklangan va bu juda ko'p vaqtni olgan. Hisobotni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish natijasida uni rasmiylashtirish hamda topshirish bir necha daqiqalarda amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu, o'z navbatida, soliq to'lovchilarni vaqtlarini va shu faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

7 Қўшилган қиймат солиғи электрон ҳисоботи асосида муаллиф томонидан тайёрланган


8 Муаллиф томонидан тайёрланган.



6-rasm. Soliq imtiyozlaridan foydalanishning eski tartibi<sup>9</sup>.

Soliq hisobotlarining avtomatlashtirilishi bilan bir qatorda ularga bog'langan boshqa tizimlarni ham avtomatlashtirish yoki tartibga solish ehtiyoji o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Soliq imtiyozlari ham shulardan biri hisoblanadi. Imtiyozlardan foydalanish tartibga solinmasa, ularning samarasi va ular yordamida amalga oshirilishi belgilangan ishlar natija bermaydi. Soliq imtiyozlari soliq elementlaridan biri hisoblanadi va soliq hisobotlarini taqdim qilish jarayonlarida ulardan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan rasmda eski tartibda imtiyozlardan foydalanish mexanizmi keltirilgan. Eski tartibda imtiyozdan foydalanish ixtiyoriy asosda amalga oshirilgan va foydalanish jarayonining to'g'ri yoki noto'g'riligi soliq to'lovchining mahoratiga hamda soliq organlarining tekshirishiga bog'liq bo'lgan. Imtiyozlar soliq to'lovchilarga tegishli sohani rivojlantirish maqsadida berilgan. Bu imtiyozdan insofli bo'lmagan soliq to'lovchilarning foydalanishlari byudjetga va iqtisodiyotga katta zarar yetkazib, yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi. Eski tartibda imtiyozlardan foydalanish mexanizmi soliq xizmati organlaridan doimiy ravishda topshirilgan hisobotlarni tahlil qilib borish va foydalanilgan imtiyozlarni qonun talablariga mosligini tekshirib turishni talab qilgan. Agar soliq imtiyozlaridan noqununiy foydalanish holatlari aniqlansa, bu soliq to'lovchilarga talabnoma yuborib kamchiliklar bartaraf etilgan holda qayta hisobot olish amalga oshiriladi.



6-rasm. Elektron hujjat aylanishida soliq imtiyozlaridan foydalanishning amaldagi tartibi<sup>10</sup>.


9 Muallif tomonidan tayёрlangan.

10 Muallif tomonidan tayёрlangan.



Yuqorida keltirilgan rasmda imtiyozlardan foydalanishning yangi va amaldagi mexanizmi keltirilgan. Amaldagi mexanizmda soliq to'lovchilar foydalanishni xohlagan imtiyozlarni va tegishli asoslovchi hujjatlarni birlashtirgan holda soliq xizmati organlariga shaxsiy kabinet orqali murojaatlar jo'natadilar. Soliq organlari maxsus dasturdan foydalangan holda murojaatchining elektron taqdim qilingan hujjatlarini o'rganib chiqib, asosli deb topilganlarini qabul qiladi yoki rad qiladilar.

Bu yangi tartib soliq to'lovchilarning xato qilishlarini oldini oladi va imtiyozlardan manzilli tartibda foydalanishni yo'lga qo'yadi. Yangi tizim joriy qilinishi bilan 2021-yilda 58 milliard noto'g'ri foydalanilgan imtiyozlar aniqlanib, soliq to'lovchilardan qayta hisobotlar olingan. 2022-yilga kelib bu kabi imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish holatlari keskin qisqargan. Shuningdek, ayrim imtiyozlardan foydalanish uchun murojaatlarni avtomat qabul qilish tizimlari joriy qilingan, bu, o'z navbatida, soliq xizmati organlari xodimlarining o'z mahoratlari ustida ishlab ko'nikmalarini oshirishga imkon beradi



7-rasm. Elektron hujjat aylanish tizimi orqali kirimsiz tovarlarning savdosini cheklash mexanizmi.<sup>11</sup>

Hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish orqali yashirin iqtisodiyotni oldini olish ham bir qancha osonlashdi. Shunday holatlardan biri korxonaga o'ziga kirim qilinmagan tovarlar savdosini cheklash bo'ldi. Kirimsiz tovarlar savdosini cheklash mexanizmi yuqoridagi rasmdan keltirilgan.

Bu tartib 2023-yil may oyidan boshlab joriy qilingan bo'lib, shu qisqa davr ichida 14 mingdan ortiq korxonaga tomonidan 6830 milliard so'mlik kirim qilinmagan tovarlar savdosi cheklandi.

Oylik hisobotlar avtomat shakllanish jarayonlarida elektron hisobvara-q-fakturalar bilan birgalikda onlayn nazorat kassa mashinalarining chek ma'lumotlari olinadi. 2022-yilning 7 oyi davomida 2,71 milliard dona chek ma'lumotlari hisobotda avtomat aks ettirilgan va 2023-yilning mos davrida 4.70 milliard dona chek ma'lumotlari hisobotlarda avtomat aks ettirilishi ta'minlangan.

3-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotlarida qayd etilgan hisobvara-q fakturalar soni dinamikasi.<sup>12</sup>

Yillar va ko'rsatkichlar	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
QQS hisoboti kiritilgan fakturalar soni	5 067 051	5 252 891	5 755 944	19 180 493	22 470 526

11 Muallif tomonidan tayёрlangan.

12 [my.soliq.uz](http://my.soliq.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрlangan



Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining avtomatlashtirilgunga qadar qo'lda bajarilishi ko'p vaqtni talab qilgan va nazorat qilish imkoniyatlari cheklangan edi. Hisobotda aks ettirilgan hisobvara-q-fakturalar va ularga tenglashtirilgan hujjatlar soni kam bo'lsa-da, soliq organlari tomonidan ularni nazorat qilish ko'p vaqt olgan. Avtomatlashtirish jarayoni soliq to'lovchilarning xatolik darajasini nolga tushirishga yordam berdi. Qo'shilgan qiymat solig'i byudjetdagi eng katta soliq turidan biri bo'lib, ikki marta soliq to'lamaslik uchun hisobotda hisobga olish mexanizmi joriy etilgan. Ushbu avtomatlashtirilgan tizim halol soliq to'lovchilar uchun qulay va kam xarajatli bo'lib, noto'g'ri hisob-kitoblar va boshqa noqulayliklarning oldini oladi.

Shuningdek, "noinsof" soliq to'lovchilar tomonidan noqonuniy soliq hisobga olishlar mavjud bo'lib, bu davlat byudjeti va boshqa soliq to'lovchilarga zarar yetkazadi. Bunday noqonuniy amaliyotlarning oldini olish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilingan. Har bir soliq to'lovchiga guvohnoma raqami berilib, ularning faoliyati avtomatlashtirilgan tizim orqali kuzatib boriladi. Ushbu tizimda 20 ga yaqin mezon mavjud bo'lib, mezonlarga tushgan soliq to'lovchilarning guvohnomalari vaqtincha nafaol holatga o'tkaziladi. Elektron hisobvara-q-fakturalarda qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasining holati aks ettiriladi va kirimlar avtomatik ravishda hisobga olinadigan yoki olinmaydiganga ajratiladi. Bu tizim yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurash olib borishda yordam berdi va 2021-2022-yillarda 2 trillion so'mdan ortiq noqonuniy hisob-kitoblarning oldi olindi.

Imtiyozlardan noqonuniy foydalanish ham soliqdan qochishning keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, Soliq kodeksi va Prezident qarorlari bilan berilgan imtiyozlar ba'zida noto'g'ri ishlatiladi. Soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetlariga soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun murojaat qilish xizmati joriy qilinishi bilan bu jarayon avtomatlashdi. 2021-2022-yillarda 70 milliard so'mdan ortiq noqonuniy imtiyozlardan foydalanishlarning oldi olindi.

Bundan tashqari, soliq hisobotlarining avtomatlashuvi hukumat tashkilotlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini ham raqamlashtirdi. Bojxona qo'mitasi, Kadastr agentligi va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvi orqali soliq to'lovchilar uchun tayyor hisobotlar shakllantirilib taqdim etiladi. Bu jarayon soliq to'lovchilarni tekshirishda vaqt va resurslarni tejashga yordam berdi. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda esa soliq to'lovchilarning faoliyati 400 dan ortiq kriteriyalar asosida tahlil qilinadi va kamchiliklar aniqlansa, ularga ogohlantirish yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat soliq tizimining avtomatlashtirilishi halol soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratib, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi. Shu bilan birga, soliq organlari xo'jalik faoliyatiga kamroq aralashgan holda, tartibga solishning raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotining yanada oshishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи, 2020. – 640 б.
2. Кукарина Юлия Михайловна. Формирование и развитие понятия “электронный документ” в зарубежном и российском законодательстве: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Москва, 2004. – 32 с.
3. Черватюк Василий Демьянович. Модель и алгоритмы хранилища данных электронного архива технической документации и электронного документооборота научно-производственной организации: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата технических наук. – Санкт-Петербург, 2020. – 20 с.
4. Кортиков Фёдор Сергеевич. Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата технических наук. – Санкт-Петербург, 2013. – 19 с.
5. Жарков А.А. Система электронного документооборота // Наука, техника и образование. – 2014. – № 3(3). – С. 65-71.
6. Столбов А.П. Организация электронного документооборота в здравоохранении // Врач и информационные технологии. – 2007. – № 5. – С. 33-39.
7. Бисултанов Амир Нажмудиевич. Развитие методико-инструментальной базы налогового администрирования в условиях цифровизации экономики: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Владикавказ, 2019. – 26 с.
8. Шрэйтэр К.О. Электронный документооборот: возможности и преимущества // Молодой учёный. – 2015. – № 2. – С. 52-55.
9. Уколов Виктор Сергеевич. Инструментальные методы экономики в процессах аутентификации электронных документов на основе ортогонального преобразования: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Москва, 2009. – 24 с.
10. Лелина Юлия Владимировна. Формирование территориально-распределённой системы электронного документооборота в организациях административного и отраслевого образования: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Москва, 2009. – 18 с.
11. Смотуга Александр Евгеньевич. Распознавание субъектов и их психофизиологических состояний на основе параметров подписи для защиты документооборота: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата технических наук. – Омск, 2017. – 18 с.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

